

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN  
(1879-1955)

# 2022

## YANVAR

## №36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 29 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

<b>1. Saidova Gulshanoy Ilhomjon qizi</b> ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	7
<b>2. Achilova Go`zal Narzullayevna</b> NAVOIYNING UCH VASIYATNOMASI .....	9
<b>3. Bekmetova Shahlo, Madraximova Shoxida, Ochilova Mehriyo</b> SAIDA ZUNNUNOVA: HIKOYA JANRIDA IJODKORNING G`OYAVIY QARASHLARI.....	11
<b>4. Eshmetova Zubayda, Qo`chqarova Salomat</b> “BOBURNOMA” DA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI.....	13
<b>5. Orazbaeva Perxan Imamatdinovna</b> IBRAYÍM YUSUPOVTÍÑ SHIGARMALARÍNDÁ WATAN TEMASÍNÍÑ SÁWLELENIWI.....	15
<b>6. Soliyeva Nigora Nabijonovna</b> NAVOIYNING AVLIYOLIGI .....	17
<b>7. Uteniyazova Quthbiyke Genjebaevna</b> QARAQALPAQ ÁDEBIYATIN OQITIWDÁ PÁN DÓGEREKLERINÍÑ ÁHMIYETI.....	18
<b>8. Sapayeva Zilola Ko`palboyevna, Salayeva Xosiyat Bardiboyevna</b> ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI O`QITISH METODIKASIDA –INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	21
<b>9. Rajabova Muqaddam</b> MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA.....	23
<b>10. Badirova Zaripa Rahmatovna</b> MIRTEMIRNING LIRIK SHE`RLARIDA FOLKLOR .....	25
<b>11. Artiqova Dilnoza Shuhratovna</b> MAKTABDA MUHAMMAD YUSUF IJODINI O`RGANISH .....	27



## АДАБИЁТ

### ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Saidova Gulshanoy Ilhomjon qizi**

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani  
40-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining  
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
Telefon: +998 97 271 14 74

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish ya‘ni – bugungi kunda ta‘lim jarayonidagi interfaol metodlar va ularning turlari, “charxpalak”, “ta‘rif va ijodkor”, “so‘z ohanrabosi” usullari haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ona tili, adabiyot, metodlar, texnologiya, mavzu, o‘quvchilar, o‘qituvchi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ma‘lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda “T-jadval”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta‘minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ta‘rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” va kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat‘iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak” usuli. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo‘ljallangan.

“Ta‘rif va ijodkor” usuli. Bu usuldan foydalanishda sinf guruhlariga bo‘linib, oldindan topshiriqlar beriladi. Guruhlar shartli ravishda nomlanadi, masalan, “Ta‘rif beruvchilar” va



“Ijodkor” guruhi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga ta’riflarni aytadi. Shundan so‘ng guruhlar ushbu ta’rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topadi. Agar birinchi berilgan ta’rifdan so‘ng darrov bu ta’rifning qaysi yozuvchi yoki shoirga tegishli ekanligini topishsa, – 5 ball, ikkinchi ma’lumotdan so‘ng topishsa, – 4 ball va uchinchi urinishda topsalar – 3 ball yig‘ishadi. O‘qituvchi ta’rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topgan guruhdan yana ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar qo‘shimcha qilishini so‘raydi va baholab boradi. Bu metod orqali har bir o‘quvchi ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. “Ta’rif va ijodkor” usuli orqali o‘quvchilar mavzuni mukammal o‘zlashtiribgina qolmay, o‘qituvchi ularni faollikka, topqirlikka o‘rgatadi va oqilona baholay oladi.

“So‘z ohanrabosi” usuli. Mazkur usuldan adabiyot darslarida, xususan, maqol, topishmoq va she’rlar, ona tili darslarida so‘z turkumlari, gap bo‘laklari bo‘yicha o‘tilayotgan mavzularni uyg‘unlashtirishda foydalanish mumkin. O‘quvchilar kichik-kichik to‘rt guruhga bo‘linib olishadi va guruhlariga “Maqol”, “Topishmoq” va “She’r” singari nomlar tanlashadi. 8-sinf ona tili darsida gap bo‘laklari mavzusi o‘tilganda mazkur usuldan quyidagicha foydalansa bo‘ladi: birinchi guruh maqol aytganda, ikkinchi guruh aytilgan maqoldagi gap bo‘lalarini topib, tahlil qiladi va o‘zlari uchinchi guruhga topishmoq aytishadi. Uchinchi guruh o‘z navbatida topishmoqni tahlil qilib, birinchi guruhga she’r aytadi va musobaqa shu zaylda davom etadi. “So‘z ohanrabosi” usuli o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirib, ularda ifodali o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘quvchini izlanishga, badiiy asar o‘qishga undaydi.

Xulosa shuki yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarining fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish// <https://znanio.ru/media/ona-tili-va-adabiyot-darslarida-interfaol-metodlardan-foydalanish-2661523>

2. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish // <http://marifatyogdusi.uz/?p=2068>



## NAVOIYNING UCH VASIYATNOMASI

Achilova Go`zal Narzullayevna

Buxoro viloyati Olot tumani

2-IDUM ona tili va adabiyot fan o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiyning uch vasiyati hamda “Lisonut-tayr” masnaviysi haqida so`z boradi. Aynan Navoiy keksaygan vaqtda qanday faoliyat olib borgani haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** ”Lisonut-tayr”, Simurg`, Husayn Boyqaro, ko`ngil, ranj, xatm qilmoq, ”Muhokamatul-lug`atayn”, madh, she`r, turk ulusi.

Samarqand qo`ldan ketgan bir vaziyatlar...Navoiy faqat tundagina ishlaydi, kunduzi esa mamlakat ishlari bilan band bo`lardi.

Navoiy yangi-yangi rejalar bilan band edi, ammo Sulton Husaynga madh o`qishni tark etmagan bir vaziyat.

Navoiyning yaratayotgan asarlari kelajak avlodlar uchun huddi vasiyatnomadek tuyilardi. U keksalik chog`ida “Xazoyin ul-maoniy”ni 1498-yilda tugallagan. Bu asarlar shoir haqidagi avtobiografik asar hisoblanadi.

904-hijriy, milodiy 1499-yilda Navoiy “Lisonut-tayr”ni yozdi. Bu shoirning o`z bolaligi davridan beri ko`ngilga tugib yutgan orzusining ro`yobga chiqishi edi. Asarda haqiqatni o`rnatuvchi Simurg` qushini axtarib uzoq va azobli yo`lga chiqqan qushlar tilidan turli masalalarga javoblar aytiladi. Bu javoblardan eng muhimi shuki, ming azobdan keyin bu qushlar-axtarganlari Simurg` o`zlaridan boshqa hech kim emasligini payqaydilar.

“Qilib Simurg` o`ttiz qush havas, o`zlarini ko`rdilar ul simurg` bas”.

Navoiy o`zi “Lisonut-tayr”ni, bundan avvalroq 1496-yilda yozilgan va o`tmishning eng ko`zga ko`ringan mutasavviflariga bag`ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat”(“Muhabbat shabadalari”) kitobi bilan bir qatorda, ”haqiqat sirlarini majoziy suratda ko`rsatib berguvchi” asar deb hisoblar edi. ”Muhokamatu-lug`atayn”dan: ”Chun “Lisonut-tayr” ilhoni(kuylari) bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko`rguzupmen”.

Asar qay tarzda yozildi-yu, Navoiy endi, keksayganda qanday ishlar edi?

“Lek chun yodimda erdi ul kalam,  
Yoshurun takror etar erdim mudom.  
Ondin o`zga so`zga maylim oz edi,  
Qush tili birla ko`ngul hamroz edi.  
Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.  
To`rt devon birla nazmi panj ganj,  
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.  
Nazmu nasrim kotibi taxminshunos-  
Yozsa,yuz ming bayot etar erdi qiyos...  
Oqibat ko`rdimki umr aylar shitob,  
O`lsamu,qolsa deyilmay bu kitob...  
Oltmishqa umr qo`yg`onda qadam,  
Qush tilni sharh etkali yo`ndim qalam...”

Navoiy turkiyda ulug`vor adabiyot yaratgan bo`lsa ham, uning milliy adabiyot uchun kurashi zamona shoirlarining ko`pchiligi tomonidan qadrlanmadi.

Avliyo endi o`z ijodiy qahramonlarining ahamiyatini nazariy nazariy jihatdan asoslashga va zamona ham kelajak shoirlariga turkiy she`riyat uchun kurashni davom ettirishni vasiyat qilib qoldirishni vasiyat qilib qoldirishga qaror qiladi.

“Muhokamatul lug`atayn”da fors tilini yerga urmagan holda turkiy til bilan chog`ishtiradi. O`zi ham fors tilida ko`plab asarlar bitganini faxrlanib yozadi.

Navoiy vafotidan oldin ikki oycha ilgari tamomlagan asari “Mahbubul-qulub”(“Qalblarning do`sti”,”Ko`ngillarning sevgani”)dir. Shoir ushbu kitobi orqali jamiyatning hamma sinf va tabaqalariga baho berib chiqadi, davrning hamma yirik falsafiy va axloqiy masalalariga o`z qarashini ifoda etadi. Bu kitob Navoiyning uzoq, mashaqqatli va rohatbaxsh onlarga boy hayotida



orttirgan tajribasining “qaymog”i edi.

Buyuk shoir va davlat arbobi hayotining aldoqchiligi va ” har ishda zabunliq” qilgani haqida so`zlar ekan, bundan dastavval uning o`z siyosiy faoliyatidan kutgan umidlarining puchga chiqqanini tushunish kerak, albatta. ”Mahbub ul-qulub”da Navoiyning podshohlar masalasiga bir necha bor qaytishi va har safar achchiq-achchiq xulosalar chiqarishi ham shu fikrlarni tasdiq etadi. Podshohlarga yaqin bo`lishni istamoq-o`z o`limi uchun balo tiyg`ini ravo ko`rmakdir. Podshoning kulishlari chaqmoqqa o`xshaydi: yorug`ligi befoyda, ammo kuydirishi tirik tandan asar qoldirmaydi”

Alisher Navoiy o`zbek adabiyotining qaysi joyida bo`shliq yoki yetishmovchilik sezgan bo`lsa, ijod tajribasi bilan o`sha bo`shliqni to`ldirib, kamchilliklarga chek qo`ygan.

**Foydalanilgan asarlar:**

1. Izzat Sulton. ”Navoiyning qalb daftari”. T. G`afur G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969-yil.

2. Alisher Navoiy. ”Xazoyin ul-maoniy”.1498-yil.

3. Ibrohim Haqqul.”Tasavvuf va she`riyat”.T.G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991-yil.



**SAIDA ZUNNUHOVA: HIKOYA JANRIDA IJODKORNING G‘OYAVIY QARASHLARI**

**Bekmetova Shahlo  
Madraximova Shoxida  
Ochilova Mehriyo**  
Xorazm viloyati Xonqa tumani  
10-son maktabning ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Saida Zunnunova hikoyalarida insonning ma’naviy boyligini, uning qalbini, vatanga muhabbati, sevgiga sadoqat bilan qarashi kerakligi takidlangan, hikoyalarining mazmuni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, ijod, Saida Zunnunova, sevgi, muhabbat, vafo, sadoqat, e’tiqod, g‘oya, ayol, ona, obraz, sinov.

Saida Zunnunova lirikada yetuk asarlar yaratishdan tashqari nasrda ham barakali ijod qildi. Uning hikoyalarida ishchilar hayoti, oila, turmush va jamiyatdagi turli masalalar yoritilgan. Sevgi, muhabbat, vafo, sadoqat, e’tiqod kabilar asosiy masalalar sifatida bo‘y ko‘rsatib turadi. Aksariyat hikoyalarining bosh qahramonlari ayollar bo‘lib, ularning jamiyatdagi faolligi va oiladagi o‘rning mutanosibliigi masalasi qalamga olinadi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti hikoyachiligining taraqqiyotida ajoyib hikoya ustalari A.Qodiriy, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oydin, Said Ahmad va boshqa yozuvchilarning xizmatlari katta. Hikoya janri o‘zbek adabiyotida jamiyat taraqqiyoti bilan hayot, turmush voqealarining o‘sishi bilan rivojlana bordi.

Hikoya janri taraqqiyotiga Saida Zunnunova ham o‘ziga xos hissa qo‘shdi. So‘zlarga hassoslik, siqqlik, tabiiylik, yasama – sun’iy obrazlardan qochish Saida Zunnunova hikoyalarining husnidir. Uning hikoyalarida ma’naviy poklik tabassum qilib turadi. Uning qahramonlari ma’naviy poklikdan olamga yashnagan bir chehra bilan boqadilar, poklik ularning hayotiga fayz, farog‘at, dillarga osuda, o‘zgarmas, xiralanmaydigan bir ravshanlik bag‘ishlaydi. Adibaning “Gulbahor” (1956), “Do‘stlik” (1960), “Qanoat” (1961), “Olov”, “Ko‘chalar charog‘on” (1965), “Bo‘ylaringdan o‘rgilay” (1972), “Chakak” (1973) to‘plamlaridagi hikoyalar fikrimizning dalilidir.

Ma’lumki, badiiy asar yozuvchining voqelikka g‘oyaviy-estetik munosabatidir. Har qanday asar jonli odamlari bilan tirik. Yozuvchi o‘z fikr-o‘yi, orzu-istagi, harakat-holati va qiyofasiga ega bo‘lgan, did va kayfiyatlari o‘zgarib turadigan inson obrazi orqali hayot haqida hukm chiqaradi. “Adabiyot – insonshunoslikdir”, deyilishi bejiz emas. Har bir yozuvchining mahorat darajasi u yaratgan xarakterlarga bog‘liq.

“Yolg‘izlik” hikoyasida “ayol kishining baxti o‘z oilasida, yaqinlari, farzandlarining kamolida” degan xulosa ustuvorligi seziladi. Hikoyaga “yolg‘izlik” deb nom qo‘yilishining o‘ziyoq inson baxti o‘z hayotini xudbinlik asosiga qurishida emas, balki atrofdagilarning baxti bilan bog‘liqligiga ishora qiladi.

Hikoya qahramoni Iqbolxon oliy ma’lumotli, fan doktori, o‘g‘li To‘lqin bor. Biroq, hayotda qilgan xatolari ko‘p, yoshi o‘tgandagina o‘g‘li bilan ziddiyatga borgach, ko‘zi ochiladi. Bu to‘qnashuv Iqbolxonning safarga ketish oldidan ro‘y beradi. U o‘g‘liga kelin olish orzusini aytganda, To‘lqin onasining fe‘l-atvorini yuziga soladi. Iqbolxon o‘g‘liga o‘rtoqlarini uyga olib kelishiga ruxsat bermas, eshik orqasida tuffini yechib, keyin uyga kirishni talab qilar, qo‘ldan to‘kilgan non ushog‘iga ham bezovta qaraydi. Iqbolxonga o‘g‘lining “Bizning uyga odam sig‘adimi?” degan ta’nasi botib ketadi. U safarda yurarkan, To‘lqinning “Bolangizning o‘yinchog‘ini yig‘ishtirmasangiz, eringizning ivirsig‘ini tozalamasangiz...” degan gaplari uni tark etmaydi.

Yozuvchi Iqbolxonning o‘tmishini tasvirlaydi. Iqbolxon aspirant ekanligida Yo‘ldoshaliga turmushga chiqqan edi. Yo‘ldoshali dissertatsiyasini yoqlagan, Iqbolxon esa o‘g‘lini katta qilish bilan band edi. Shu bois uning ilmiy ishi chala qolib ketadi. Bu narsa Iqbolxonga bora-bora ta’sir qilib, eriga ta’na, malomatlar yog‘diradi. Er-u xotinning iliq munosabatlari shu yerda uziladi. Iqbolxon: “Boshqa xotin oling. Uyda o‘tiradigan, ha, uyda o‘tiradiganini oling. Ana shunda har kim o‘z o‘rnida turadi. ...Ter hidi bijg‘igan ko‘ylagingizni yuvmasam yuvmabman”, deydi. Ular Iqbolxonning xudbinligi sababli ajralishadi.



Hikoyadagi eng asosiy fikrlar tasdig‘i deb quyidagi o‘rinlarni keltirish mumkin: “Hozir u o‘sha papiros ezg‘ilanib yotgan kuldonna ham, joniga tekkan vaqtini olgan ro‘zg‘or tashvishlarini ham juda-juda qo‘msardi. Uning yuragidagi bu ehtiyoj ko‘z yoshlariga aylanib, yuzidan oqdi. Bu irodali ayolning umrida birinchi o‘kinib yig‘lashi edi. Ana shu ehtiyoj – bekalik mashaqqati, bekalik baxti qiz bo‘lib tug‘ilganida u bilan birga tug‘ilganligini endi yaxshi bilardi. U bir tomonlama baxt topdi. Mukammal baxt uchun esa oila va bir-birining tashvishi bo‘lishi kerak edi”.

Yozuvchining “O‘kinch” hikoyasida ham oilaning muqaddas qo‘rg‘on ekanligi, uni eru xotin barobar asrashi zarurligi, agar u darz ketsa jabr chekadiganlar begunoh bolalar ekanligi, ularning javdiragan nigohlari esa atrofdagilarning yuraklarini larzaga keltirishiga urg‘u beriladi. Asarning bosh qahramoni Malik o‘zi sevgan ayol Muyassarga uylangan bo‘lsa-da, o‘z obro‘si va martabasi tufayli kekkayib, dimog‘dor bo‘lib ketadi. Malik ilmiy ish himoya qiladi, olim unvonini oladi, oliygohda dars beradi. Muyassar esa kombinatda oddiy to‘quvchi edi. Malikning shu darajaga yetishiga Muyassar sabab, turtki bo‘lgan bo‘lsa-da, u buni tushunib yetmaydi. Bora-bora eru xotin o‘rtasiga sovuqchilik tushib, Muyassar o‘g‘lini olib o‘z uyiga ketib qoladi. Malik Hamidaga uylanadi. Hamida molparast, barcha narsani ota-onasi va aka-ukalariga tashiydigan o‘tkir xotin edi. Malik uni Muyassar bilan solishtirib yuragi siqiladi, xatolarini angelaydi. O‘g‘li Maqsudni olib kelganda xotini Hamida janjal qiladi.

Ushbu xayollar bilan hovlida aylanar ekan, buvisi bilan yotgan Maqsudni Malik o‘z uyiga olib kirib ketadi.

“Ko‘chalar charog‘on” hikoyasidagi Gulnora esa shunday insoniy poklikni og‘ir sinovlar ichidan olib o‘tgan, uni muqaddas tutgan, gard yuqtirmagan va shuning uning uchun ham oqibatda chinakam nash‘ali hayotga erishgan.

“Buvi” hikoyasi zamonaviy mavzudagi asarlardan biri bo‘lib, unda o‘zbekona urf-odatlar, qadriyatlar, til, milliy an‘analari, millat tarixining qadrlanishi masalasi ko‘tarilgan. Umriniso buvi va uning nabiralari Nargis, To‘lqinlar katta avlod va kichik avlod vakillaridir. Ularning qarashlari, qiziqishlari va intilishlari, orzu-xayollari o‘rtasida tafovut bor. Nargisning o‘z otasi yozgan qo‘lyozma varag‘iga bepisandligini ko‘rgan buvi jahli chiqadi. Darhaqiqat, buvining quyidagi ta‘nalari o‘rinli: “Dadangning topib kelgan nonini yeysan, olib kelgan ko‘ylagini kiyasan. Lekin qanday qilib bu pullarni topdi, nimalarni yozdi, uning senga qizig‘i yo‘q. Shundaymi? Dadangning yozgan narsasini hatto tushunmaysan, ammo puli yaxshi. Uyalmaysanmi, bolam?”

Hikoyada o‘z ona tilini bilish masalasiga ham e‘tibor berilgan. Aytish kerakki, totalitar tuzumning sovetlashtirish siyosati urchigan davrda, 1970-yilda ushbu fikrlarni aytishga yozuvchi jur‘at topa olgan. Asarda buvi tomonidan aytilgan “O‘nta tilni bilsang ham mayli, bilaver. Lekin seni boqayotgan tilni bilmasang, odammisan sen? Agar qaynanang mening ko‘nglimdagidek xotin bo‘lsa, boring, bolam, avval onangizning tilini o‘rganib keling, deydi”\_ kabi tanbehlar hamma zamonlar uchun ham tegishlidir.

Asar so‘nggida Umriniso buvining o‘g‘linikidan, ya‘ni ko‘p qavatli “dom”dan o‘z uyiga haftada bir kun borib turishi ma‘lum bo‘ladi: “Ertaga hech qanday kuch uni bu yerda olib qololmasligini ham biladi. Umrini, mehri, mehnatini bolalariga ulashib yurgan bu kampir, nuragan, jimjit uyi bilan bir kungina sirlashib, o‘chgan xotiralarga chiroq yoqib kelishni kanda qilgan emas. Uni charchashga qo‘ymagan e‘tiqod ham, balki shudir”.

Yozuvchi hikoyalarining har biri alohida-alohida mustaqil asarlar bo‘lsa-da, ulardagi ijtimoiy va badiiy g‘oyalarning tadriji, ularni bir tizimga birlashtiradi. Jumladan, Umriniso buvi obrazi “Shu uyning bekasi” hikoyasining ham bosh qahramoni bo‘lib, o‘z uyidan xabar olgani, ya‘ni haftaning payshanba kunida kelib, chiroq yoqib, o‘tgan yaqinlariga Qur‘on tilovat qilishi hikoya qilinadi.

Saida Zunnunova hikoyalarining mavzusi boy va rang – barang. Uning hikoyalarida zamondoshlarimiz mehnatini tasvirlashga alohida e‘tibor beriladi, mehnat kishisi timsoli yaratiladi, insoniylik ulug‘lanadi. Insonga ishonch bilan qarash, eskilik sarqitlariga qarshi kurash va yangilikning g‘alabasini tasvirlash, sevgi va oila, urush va uning oqibatlari, tinchlik madhi, dunyoda eng ulug‘ona va uning qalbini kuylash adibaning sevgan mavzularidandir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. www.tadqiqot.uz
3. www.ziyonet.uz



## “BOBURNOMA” DA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI

**Eshmetova Zubayda**  
**Qo'chqarova Salomat**

Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi  
10-maktabning ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada “Boburnoma” asarida uchraydigan tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasi, xulq-atvori, shuningdek ma'naviy dunyosi haqida ma'lumotlar berilib, asarning muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyati ham izohlangan.

**Kalit so'zlar:** “Vaqoye” asari, Umarshayx Mirzo, harrof, fasih, shujo, Husayn Boyqaro, temuriy shahzodalar, Alisher Navoiy, Humoyun Mirzo.

Insoniyatning abadiyatga mansub buyuk farzandlari safida shoh va shoir, mislsiz adib va tarixchi Zahiriddin Muhammad Bobur o'z o'rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik imkon, iqtidor va fazilatlarini beqiyos kishilar juda kam uchraydi.

Bobur - buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi, adabiyotshunos, tarixchi, faqih, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi.

Shoh, adib, shoir, lashkarboshi Boburning “Vaqoye” (“Voqealar”) keyinchalik “Boburnoma” nomida shuhrat qozongan asari Zahiriddin Muhammad Boburning ongli hayoti va faoliyati muhim qismining kundaliksimo bayonidir. Shuning uchun shoir bu asar va uning o'z tarjimai holiga nechog'liq daxldorligi xususida bir ruboysida shunday yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.  
Har kim bu “Vaqoye” ni o'qur, bilgaykim:  
Ne ranj-u, ne mehnat-u, ne g'amlar ko'rdum.

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Asarda XV asrning oxiri - XVI asrning birinchi yarimlarigacha Xuroson, Movarounnahr, Hindistonda kechgan muhim tarixiy voqealar o'z aksini topganidek, asarda yuzlab tarixiy shaxslarning nomlari bor. Ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlar har qanday tarixiy asarda topilmaydigan noyobligi, muhimligi bilan olimlarni ham lol qoldiradi.

“Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir. Asarda o'sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma'lumotlaridagi ishonchlilikni ta'minlagan. Bobur ko'plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan.

Bobur o'z otasi haqida shunday yozadi: “hanafiy mazhabliq, pokiza e'tiqodliq kishi edi... Ravon savodi bor edi.

«Xamsatayn» va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar “Shohnoma” o'qur edi. Ta'bi nazmi bor edi, vale she'rga parvo qilmas edi.

Bisyor saxovati bor edi. Xulqi dog'i saxovaticha bor erdi, xushxulq va harrof (tezagpiradigan, so'zamol) va fasih (yoqimli) va shirin zabon kishi erdi, shujo (shijoatli) va mardona kishi edi”.

Agar “Boburnoma” yozilmasa, bizning Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy hayotlari, faoliyatlari va ijodlari, xususan, shaxslari haqidagi tasavvurlarimiz anchayin yuzaki bo'lib qolgan bo'lardi. Bobur o'z asarida Husayn Boyqaroning shaxsiy fazilatlaridan bir nechtasini namoyish qiladi: “Shijoatli va mardona kishi edi. Ko'p marotaba g'animga o'zi qilich solgan. Temurbek naslidan hech kim ma'lum emaski, Husayn mirzodek qilich chopgan bo'lsin. Nazmiy iste'dodi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy yozardi. Taxallusi Husayniy edi. Ba'zi baytlari yomon emas. Lekin Mirzoning devoni batamom bir vazndadur...”

Shakl va shamoyili. Qiyiq ko'zli, sherkelbat kishi edi. Belidan past ingichka edi. Ulug' yoshga yetib, soqoli oqargan bo'lsa-da, xushrang, qizil-yashil ipak matolardan kiyim kiyardi. Qora qo'zi terisidan qilingan bo'rk yo qalpoq kiyardi. Ahyoh-ahyon- iydarda kichik uch o'rama sallani yap-



yassi chirmab, qarqara patina sanchib, namozga borardi”.

Asarda Bobur Husayn Boyqaroning farzandlari haqida ham yetarlicha ma'lumotlar berib o'tgan. “Boburnoma” dan ular haqida quyidagi parchani keltirib o'tamiz: “Sulton Qilichoq tang qolib Balx qal'asini o'zbekka berdi. O'zbek Balxni olganidan so'ng bu jamiyatning xabarini eshitib, Samarqandga qaytib ketdi. Bu mirzolar garchi suhbat va suhbatdorlikda, munosabat va mulozamatda mohir bo'lsalar-da, lekin sipohiylik rang-u bo'yog'idan yiroq, mardonalik va jang-u jadaldan chetda edilar”.

“Boburnoma”da adabiyot va san'at ahli, ilm-fan, ma'rifat kishilariga ham munosib o'rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn, Muammoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so'z ustalari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Bu o'rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siymosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga munosabati haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Bobur o'z asarida Navoiyga shunday ta'rif beradi: “Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r ayubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas...”

Fozillar va hunarmandlarga Alisherbekcha murabbiy va homiy inson bo'lgani yoki o'tgani olamda ma'lum emas”.

Biz “Boburnoma”da Bobur shaxsiyatidagi rostgo'ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo'llik, hassoslikning namoyon bo'lishi holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi materiallar berilgan. Bobur o'gli Humoyun haqida asarda shunday ma'lumot beradi: “...Muhammad Humoyun, bir yildirki, Badaxshonda, diydorimizdan ayro tushgandi. Bizni sog'inib, Badaxshonni kuyovi Mirzo Sulaymonga topshirib, bir kunda Kobulga keladi. Mirzo Komron ham Qandahordan Kobulga kelgan ekan. Iydgohda uchrashib qolib, hayron bo'lib, kelishi sababini so'rabdi. Muhammad Humoyun ham bizni sog'inganini aytib, Mirzo Hindolni Kobuldan Badaxshonga yuborib, bizning tarafga kelaveribdi. Bir necha kunda dorul xulofa – Ograga yetib keladi. Ko'ngillar gul yanglig' ochilib, ko'zlar chirog'dek yorishdi. Har kuni ziyofat berilardi. Keyin uning o'ziga to'y berib, xursandchilik qildik. Ancha paytgacha bir yerda bo'lib, bir-birimiz bilan do'stona munosabatda bo'ldik. Haqiqatda, suhbatda tengi yo'q edi va agar komil inson deyish mumkin bo'lsa, u o'sha edi”.

“Boburnoma”da tarixiy shaxslar haqida bunday ma'lumotlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Biz ayrimlarigagina to'xtaldik, xolos. Bu ma'lumotlar asarning tarixiy manba sifatida qimmatini oshirish bilan birgalikda o'sha davrdagi ilm-fan, madaniyat, san'at va tarixiy vaziyat haqida ham aniq, ishonchli dalillar beradi. Asar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ajdodlarimiz hayoti davomida yo'l qo'ygan xatolardan xulosa chiqarsak, ular amalga oshirgan ibratomuz ishlardan faxr va iftixor tuyg'ularini tuyamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z. M. Bobur. Boburnoma. -Toshkent: O'qituvchi, 2017
2. Sariyev Sh. Adabiyot (Metodikqo'llanma). –Toshkent: Head book, 2018
3. To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua). -Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 2017



## IBRAYÍM YUSUPOVTÍN SHIGARMALARÍNDA WATAN TEMASÍNÍN SÁWLELENIWI

**Orazbaeva Perxan Imamatdinovna**

Qaraqalpaqstan bilimlendiriw aǵlası  
I.Yusupov atındaǵı dóretiwshilik mektebi  
Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı pání oqıtıwshısı  
Tel: +99893 488-75-02  
email: perixanorazbaeva@gmail.com

**Annotaciya:** Bul maqalada qaraqalpaq ádebiyatınıń bayteregi, Ózbekstan qaharmanı I.Yusupov tuwǵan jerdi, onıń tábiyatın, insannıń ana topraǵı, kindik qanı tamǵan jeri menen baylanısın aytıp ótedi.

**Gilt sózi:** Aq kókireklik, maǵan balzan, jamalın, tımıqta, hár shıbıǵın, payqasına, tortasına.

Usı tuwǵan jer, ana - Watan menen maqtanış etiw sezimleri, shayırdıń “Seksewil”, “Qara tal”, “Awıl, awıl”, hám taǵı basqa qosıqlarında sóz boladı hám adamlardı Watandı súyip jasaw, kóz qarashıǵında saqlawǵa shaqıradı.

Tuwılǵan jerdi, xalıqtı jırlaw-bul qaraqalpaq shayırlarınıń barlıǵında orayılıq temalardıń biri. Biraq solay bolsa da shayır Ibrayım Yusupovtıń poeziyasında bul tema úlken súyispenshilik, tereń lirizm menen jırlanadı .

“Tuwǵan jerim” degen sózdiń,

Máni berip payqasına.

“Qoyar edim juldız etip,

Aspandaǵı ay qasına”

Qaraqalpaq xalqına tán bolǵan keń peyillik, miymandoslıq, aq kókireklik shayırdıń kópshilik qosıqlarında jırlanadı.

Ásirese, “Tuwǵan jer“, “Awıl, awıl”, ”Watan”, “Qaratal” qosıqlarında da ózi tuwılıp, kamalǵa kelgen mákannıń gozzal kelbetin joqarı poetikalıq qatarlar menen oqıwshınıń kóz aldına keltirip súwretlenedi. Eki qatar qosıq tema jazılǵan poetikalıq dóretpede, shayırdıń tuwǵan jerde tungısh seziminiń oyanıwı menen birge, oǵan degen saǵınıshın da sezemiz

“Suw boyında shayqatılǵan janım qaratal  
Maǵan balzam, sen tımıqta shaqırǵan samal  
Maǵan tuwısqan hár shıbıǵın hám búrtiklerini  
Seniń astıń – kindigimnen qan tamǵan jerim  
Anam saǵan baylap meniń átkónshegimdi,  
Terbetkende ırǵalǵan hayyalap sen de”

Demek, bul qosıq qatarlarında shayırdıń tuwılǵan jerge degen watan saǵınısh sezimleri jırlanadı

Tuwǵan jerge, balalıq shaǵına degen saǵınısh sezimlerin hár bir jazǵan qosıqlar qatarında kóriwge boladı,

“Anam tuwıp háyyiw aytıp,

Sóylep júrip til úyretken,

Umıtarman onı qáytip,

Es bildirip, adam etken!

Quldıraǵan soqpaqların,

Sıldıraǵan salmaların,

Til dúzetken taqmaqların,

Shúllik penen ańǵalaǵın ...

Bala gezde nan batırıp,

Sarı maydıń tortasına,

Ílaq qozı baǵıp júrip,

Malı menen, shóbi menen ,

Úykelesip bir óskenmen”

Shayır Ibrayım Yusupovtıń bul “Awıl, awıl” qosıǵında hár bir insannıń kóz aldına tuwılıp ósken awıl balalıq waqtı birme-bir kóz aldına eleslep tuwılǵan awılǵa degen saǵınısh sezimlerin payda



etedi. Shayirdin watan haqqida soz bolatugin “Dala guli” “Watan”, “Sonday bir el meni inshime tiygen”, “Mustaqillik maydaninan otkende” siyaqli qosiqlari bar.

Respublikam, Men sol shamennen saylap,  
Qizil gul akeldim toyin waqtinda,  
Azat xaliqlar awqaminda gul jaynap,  
Mangi shadlangansa meni baxtima.  
Mudam aq bolsin dep nesip-igbalin,  
Miynet zawqi menen jaynap jamalin,  
Ulli dosliq quwat bersin toyina.

“Dala guli” qosigida, men seni toyina aq, qizil gullerdi akeldim. Mudami nesip-igbalin aq bolsin dep aq gullerden shashiw shashayin toyina dep jirlap otedi.

Tagi da usi qosiq qatarlarida keñ dasturxan jayip altin toyga putkil watan kelsin doslarin kelsin dep aytp otedi.

Shayirdin “Bul jer ele zor boladi” “Aral elediyalari” qosiqlari durkimin alip qaran, bul qosiqlardi kim qynalmay, oylanbay oqiy aladi. Jani tas adam gana biytarep bolwi mumkin, ya Watansiz adam gana koz jumip qarawi mumkin. Kim watan dep jasasa, kim tuwgan jer tagdirin oylasa kozine jas aladi. Aral tagdiri – xaliqnin tagdiri, onin suwi qurip edi onnan baliqta qashti, jerdi duz basti, usini oylagan shayir:

Qalsa onin tuwgan jeri qalama?  
Muhabbat jashliq omiri qalama?  
Ata-babasinin qadiri qalama?  
Insanday saginip qadirley bilmes .... deydi.

Baliqqa, qusqa ne qaygi suw bolsa tawip aladi, suwga ne qaygi shuqir bolsa soğan quyadi. Al xalqi she? Ol tuwlgan jerin taslap kete ala ma? Shayirdi usi sezim qynaydi, tinishin aladi.

Demek, kornekli soz sheberi Ibrayim Yusupov Watanga degen xalqimizdin sezimlerin ozinin kopshilik poeziyalarida aship bere aldi.

Shayirdin “Awil, awil”, “Talli jagistaqi eske tusiriwler”, “Tal bolipti tallari” poeziyalik doretpelerinde kindik qani tamgan tuwlgan jerin jer janneti dep biledi ham on kün shigis jolawshisina tanistiriwda “Talli jagis-tuwgan makanim, onda jurt tan qalganday ayriqshaliq bar dep ayta almayman, biraq ol jagalawlar magan elege deyin jer janneti siyawli korinedi” - dep jazadi ham usi pikirin ozinin “Tuwlgan jer” qosigida poetikalik qatarlar menen sipatlap beredi.

#### **Paydalanilgan adbiyatlar:**

1. I. Yusupovnin I tomligi Nokis «Bilim» baspasi-2018-jil
2. I. Yusupovnin II tomligi Nokis «Bilim» baspasi-2018-jil



## NAVOIYNING AVLIYOLIGI

**Soliyeva Nigora Nabijonovna**

Namangan viloyati To`ra`qo`rg`on tumani  
30-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiyning Husayn Boyqaro davridagi turli nizolardan azob chekkan paytdagi xotiralari o`z aksini topgan. Sulton Husayn Mirzo saltanatiga tahdid solgan Shayboniyxon haqida ham fikrlar berilgan. Alisherning nima uchun haj safariga yuborilmaganlik sababi ham aytib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Sulton Husayn Mirzo, Mashhad, Xoja Ubaydullo Ansoriy, Astrabod, Mo`min Mirzo, Xondamir, filhol, Badiuzzamon.

Navoiy salomatligining yomonligiga qaramasdan (ehtimolki, xuddi shuning uchun, ya`ni o`lim yaqinlashayotganini sezgani uchun) juda shoshib yangidan-yangi ijodiy rejalarini amalga oshirish bilan band ekan, “falak” unga shohning dasturxonidagi “asalga yashirilgan nayzalar”ni ko`rsatishda davom etar edi.

“Ravzatus-safo”dan: “Nizomulmulk va tarafdorlarining hukmronligi uzoqqa cho`zilmadi. Afzaliddinga qarshi ishlari va podshoh oilasidagi nizolar tez fursatda uning tanazzuliga sabab bo`ldi.

Afzaliddin mamlakatdan tashqarida qochib yurganida, Nizomulmulk uning ukasi Aminiddin Mahmud bilan chiqisholmay, uni zindonga soldi. Nizomulmulk yana Sulton Husayn Mirzoning nabirasi Mo`min Mirzoning o`ldirilishiga sababchilardan biri bo`ldi: Badiuzzamon Balhga hokim etib tayinlanganda, Astrabodni o`z o`g`li Mo`min Mirzoga berib ketgan edi. Sulton Husayn o`z tomonidan Astrabodga o`zining sevikli xotini Hadichabegimdan tug`ilgan Muzaffar Husaynni hokim qilib tayinladi, natijada sulton bilan uning katta o`g`li Badiuzzamon o`rtasida urush boshlandi. Alisher Navoiy ota va o`g`ilni yarashtirish uchun podshoh topshirig`i bilan Balxga borgan chog`da, Sulton Husayn Mo`minni qo`lga olish haqida yashirin buyruq berdi va buyruq Badiuzzamon qo`liga tushdi; Navoiyning safari natijasiz chiqdi. Badiuzzamon sulh tuzishdan bosh tortdi, ammo Mo`min Mirzo baribir qamoqqa olindi. Bu orada Hadichabegim Nizomulmulk bilan birga Sulton Husaynning mastligi chog`ida undan Mo`min Mirzoni o`ldirish haqida farmonga qo`l qo`ydirib olishadi. Sulton hushiga kelib, farmonni bekor qilib, yangi farmon yuboradi, lekin Mo`min Mirzo o`ldirilib bo`lingan bo`ladi.

Sulton Husayn mast holda Biy Jangiyya farmon yozishni buyuradi. Bu farmon olinishi bilanoq Muhammad Mo`min Mirzo hech to`xtovsiz yo`qlik dunyosiga jo`natilishi kerak edi.

Farmon yarim kechada keldi. Qutvol farmonni ijro etdi, ertalab shaharda mish-mishlar tarqaldi. Qiyomat qo`ngandek bo`ldi. Butun shahar erkak va ayollari qora libos kiydi. “Bog`i Zog`on” yonidagi “Bog`i Nav”da barcha ta`ziyaga yig`ildi. Huroson shoirlari marsiya o`qishga kirishdilar. Zamonining malikul-kalomi Gulxaniy Astrabodiyning quyidagi qit`asi shuhrat topdi:

Bozori zulm boz rivoji digar yoft,  
Zin kofire, ki Mo`mini dinro shahid kard.  
On jo Yazid omadu kori Husayn soxt,  
In jo Husayn omadu kori Yazid kard.

Xondamirning “Habibus – siyar”asarida shunday yozadi: “Mo`min Mirzo o`ldirilganda Alisher Navoiy Mashhadda edi.

Mamlakatda davom etayotgan nizolar Navoiyning o`z shaxsiy hayotiga ham ta`sir etardi. Hatto shoir haj safariga ham bora olmaydi. Sulton Husayn Alisherga hajga bormaslik evaziga uning xohlagan istagini bajarishni aytadi. Shunda Alisher Hirotdagi mashhur Xoja Ubaydullo Ansoriy xonaqohiga jo`rokbash, ya`ni ish boshqaruvchi etib tayinlanadi.

Alisher Navoiy bo`lib o`tgan voqealardan qattiq aziyat chekar, qachondir Sulton Husaynning davlati tanazzulga uchrashini bilardi. Bu haqda Sulton Husaynga ko`p bora aytadi, biroq buning foydasi bo`lmaydi.

Avliyo yaxshi odob, yaxshi xulq-saodat kaliti deb biladi. Zero, Alisher Navoiy barcha illat va nuqsonlardan holi bo`lmoqni inson kamolotining asosi, deb baholaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Navoiyning qalb daftari”. Izzat Sulton. T.G`afur G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969-yil.
2. “Abadiyat gulshani”. O`tkir Rahmatov .T.: “Sharq”, 2013-yil.



## QARAQALPAQ ÁDEBIYATIN OQITIWDA PÁN DÓGEREKLERINIŇ ÁHMIYETI

**Uteniyazova Qutlibiyke Genjebaevna**  
Qaraqalpaqstan bilimlendiriw aǵlası,  
I.Yusupov atındaǵı dóretiwshilik mektebi  
Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı pání oqıtıwshısı  
Tel: +998 90 658-43-03 email:  
uteniyazovaqutlibike@gmail.com

**Annotaciya:** Usı maqalada klaslarda klastan tıs sabaqlar hám pán dógerекleriniń oqıwshılardıń bilimín ósiriwde oǵada áhmiyetli orın iyeleytuǵınlıǵı haqqında sóz etiledi.

**Gilt sózler:** Ádebiy kitaplar oqıw, dóretiwshilik, maqala, aǵza bolıw tártibi, qoyılatuǵın talaplar.

Klasslarda sabaq beretuǵın pán muǵallimleri óz pánlerinen qosımsha dógerек jumısların alıp baradı.

Pán dógerекlerin alıp barıwdaǵı maqset oqıwshılardıń sabaq waqtında alǵan bilimlerin bekkemlewden ibarat. Dógerекke oqıwshılar arasınan dógerекke qatnasıwdı qálewshi oqıwshılardı qamtıp alıw maqsetke muwapıq boladı, sebebi dógerекke qatnasıwdı qálemegen oqıwshını zorlap qatnastırǵan menen nátiyjege erisiw qıyın. Dógerекtiń is jobası sabaqlıqtaǵı is jobada berilgen is jobaǵa jaqın etip dúzilse boladı. Dógerекte oqıwshılar sabaqta úyrenген temalardı elede tereńlestirip úyreniwge erisedi.

Ádebiy kitaplar oqıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵı artadı. Dógerекte alǵan bilimlerin kórsetiwde oqıwshılar menen hár túrli jarıslar, kesheler shólkemlestirip barıw maqsetke muwapıq boladı. Pán dógerекlerin oqıtıw 45 yaki 60 minut dógerегинде ótilse boladı.

Pán dógerекleriniń jumıs mazmunı oqıw baǵdarlamasınıń ayırım temaların, bòlimlerin, ilimpazlar, jazıwshılar hám mádeniyat xızmetkerleriniń ómiri menen dóretiwshilik xızmetin, ilimpán, texnika, texnologiya jańalıqların modellestiriw hám tájiriybe-sınaw jumısların úyreniwden ibarat. Bul jumıslar oqıwshılardıń bilimín bayıtıw menen birge, texnikalıq dóretiwshilikke, tájiriybe ótkeriwge úyretedi, dóretiwshilik oylawın, tapqırlıǵın, jedelligin rawajlandıradı, izleniwshilik, izertlew jumıslarına ádetlendiredi. Mekteplerde hár qıylı dógerекlerdi shólkemlestirgendegi maqsetimiz oqıwshılardıń bos waqtın mazmunlı hámde qızıqlı etip shólkemlestiriw, olardaǵı dóretiwshilik qábiletlerin jüzege shıǵarıwdan ibarat. Usı maqsette mekteplerde házirgi künleri kòplegen dógerекler jumıs alıp barmaqta. Mine usınday dógerекlerdiń biri «Jas háwesker dramaturgler» dógerегi bolıp esaplanadı.

Dógerек basshısı dógerек aǵzalarına ózimizdiń xalıqtıń úrp-ádetlerin, xalıq awızeki dóretpelerin, zamanagóylikti keń túrde úgit-násiyatlawları shárt. «Jas háwesker dramaturgler» diń saxnalıq kórinislerinde solardıń barlıǵı óz sáwleleniwın tabıwı zárúr.

Dógerек basshıları dógerек aǵzaları arasında ushırasıw keshelerin (jazıwshı, shayırlar, gazeta-jurnallardıń xızmetkerleri menen) shólkemlestirip barıwı kerek.

Bir sóz benen aytqanda, dógerек basshıları dógerек aǵzalarınıń erteńgi kelesheginen jaqsı úmitler kúttiretuǵın talant iyesi etip tárbiyalap shıǵarıwı lazım. Buniń ushın dógerек basshısı dógerек jumıslarına ózleriniń bar uqıbın jumsawı kerek.

### DÓGEREK BASSHISINA QOYILATUǵIN TALAPLAR

Mekteplerde shólkemlestirilip atırǵan dógerекlerdiń dógerек basshılarınıń hám oǵan aǵza bolǵan oqıwshılardıń aqıl-oyında joqarı dárejedeǵı tálim-tárbiyalıq pazıyletler jámlengen bolıwı kerek.

Dógerекlerdiń dógerек basshıları dógerек jumısların turaqlı túrde ilim hám mádeniyattıń sońǵı jetiskenlikleri menen xabardar etip turıwı lazım. Sonıń menen birge, olardıń aqıl-oyına dóretiwshilik jumıslardı síndirip barıwı shárt.

### DÓGEREK AǒZALARINA QOYILATUǵIN TALAPLAR

Mekteplerde shólkemlestirilip atırǵan «Jas qálemkeshler», «Jas háwesker dramaturgler» dógerегi basqa dógerекlerden óziniń ayrıqsha qásiyetleri menen ajralıp turıwı kerek.

«Jas qálemkeshler», «Jas háwesker dramaturgler» dógerек aǵzaları bul dógerекke aǵza bolıwı ushın birinshi náwbette ózinde ádebiyatqa, kòrkem sóz ónerine ıqlas bolıwı shárt. Ózinde



dòretiwshilik uqıp hám talant bolıwı kerek.

Dògerek aǵzaları «Jas qəlemkeshler», «Jas háwesker dramaturgler» dògeregi boyınsha tòmendegilerdi bilip alıwları kerek:

1. Qaraqalpaq ádebiyatınıń tariyxı boyınsha maǵlıwmatqa iye bolıwı;
2. Qaraqalpaq ádebiyatınıń sòz zergerleriniń dòretpelerin qunt penen ùyrenip barıwı;
3. Shet el ádebiyatınıń kòrnekli wákılleri dòretken shıǵarmalar menen tanısıwı;
4. Özleri dòretken shıǵarmalardı dògerek aǵzaları ortasında talqılaw;
5. «Jas qəlemkeshler» dògerek aǵzaları özleriniń dòretpeleri arqalı gazeta-jurnallarda shıǵıw;
6. Öz dòretpeleri arqalı kòrik-tańlawlarǵa qatnasıw.

### DÒGEREK AǴZALARINIŃ HUQIQLARI

Mektep oqıwshıları özleri qızıqqan tarawǵa tiyisli bolǵan dògereklerge öz erkinligi menen aǵza bolıwları mùmkin. Oqıwshı óziniń bos waqtın biykar òtkermew ushın bir yamasa bir neshe dògereklerge aǵza bolıwı hám sonıń menen birge, sabaqlarǵa qatnasıwı mùmkin (bul jerde oqıwshınıń ata-anasınıń ruxsat xatı bolıwı shárt hám talap etiledi).

Oqıwshı ádebiyattanıw dògerekleri ortasında òtkeriletuǵın túrli kòrik-tańlawlarǵa óziniń dòretiwshilik jumısların usınıs etiwı, tańlawlarǵa qatnasıw huqıqına iye. Oqıwshı bolajaq kòrik-tańlawlarǵa, mektepler arasında òtkeriletuǵın jaǵdayda qaysı mektep yamasa dògerek tárepinen qatnasıwı oqıwshınıń ıqtıyarında boladı.

Oqıwshı dògerek shınıǵıwlarınan ıqtıyarlı túrde sebepli bolǵanda (basqa jerge kòshkende, basqa oqıw ornına òtkende, awırıp qalǵanda) jazba túrde eskertiwi mùmkin.

### DÒGEREK AǴZALARINIŃ WAZIYPALARI

Dògerek aǵzalığına ulıwma bilim beriw mekteplerinde tálim-tárbiya alıp atırǵan rasası, milleti, sociallıq kelip shıǵıwı, dinine, tiline qaramastan 1-klastan 11-klass oqıwshıları qabıl etiledi.

Dògerek shınıǵıwlarına qatnasıwdı qálegen oqıwshı aldın ala jazba túrde dògerek basshısına arza beriwı shárt. Olardı dògerek shınıǵıwlarına qatnasıp atırǵanlıǵın ata-analarına hámde özleri bilim alıp atırǵan oqıw ornına bildiriwı qoyıwları kerek.

Dògerek sabaqlarına qatnasıp jürgen oqıw dògerektiń sabaq kestesine qatań boysınıwı talap etiledi. Oqıwshı sebepsiz sabaqlardı qaldırıwı mùmkin emes. Egerde keshirimli sebepler bolıp qalsa, dògerek basshısına bildiriwı kerek.

Dògerek qatnasıwshıları aldın ala ádebiyatınıń sırların biliwge, onı tolıq iyelewge háreket etiwı zárür. Dògerek basshısı tárepinen ùyge tapsırma sıpatında berilgen wazıypalardı öz waqtında orınlawı talap etiledi. Dògerek qatnasıwshıları dògerektiń ishki tártip-qaqıydalarına ámel qılıwı shárt.

Oqıw sabaqlarına òzinen basqa tanıs emes adamlardı ertip keliw, dògerek xanasındaǵı kòrgizbelerge ruxsatsız tiyiwleri qatań qadaǵan etiledi.

Bularǵa qosımsha dògerek xanasında qaraqalpaq xalqınıń belgili sòz ustalarınıń sùwretleri ilinip turıwı maqul boladá.

### DÒGEREK BASSHISINA ESLETPE

Dògerek basshısı shınıǵıwlarıdı öz waqtında òtkerip barılıwın, oqıwshılar haqqında maǵlıwmatlardı toplaw, toparlar haqqında jazıwlar, topar sárdarları haqqında maǵlıwmatnama, sabaq òtiw kestesı, «Dògerek sabaǵı boyınsha» jurnalǵa belgilep barıwı kerek.

Dògerek basshısı hár jıllıq is rejesine muwapıq sabaqlardı òtip baradı. Bul reje oqıw jılınan aldın tastıyqlanǵan hám òtkeriletuǵın saatlar anıq jazıp qoyılıwı kerek.

Hárbir dògerek basshısında tapsırmalar dáptershesi bolıwı lazım. Direktor janındaǵı májilis, metodikalıq keńes, muǵallımlar keńesindegi tapsırmalar áne usı dápterge jazıp barıladı. Tapsırmalar dápterine qarap dògerek basshısı kúndelik, háptelik is rejesin dűzip baradı.

Házirde men mektepte «Jas háwesker dramaturgler» dògeregin alıp baraman. Dògerekke 20 dan artıq oqıwshı aǵza. Dògerektegi oqıwshılar aktyorlıq uqıp bar oqıwshılardan ibarat. Dògereke oqıwshılar hár túrli tapsırmalar átirapında óziniń aktyorlıq uqıbın kórsetiw arqalı tańlap alındı. Òtken oqıw jılı dawamında dóretiwshilik mektebimizde dògerek aǵzaları bir njeshe márte ózleriniń koncert baǵdarlamaların, saxnalıq kòrinislerin qoyıp berdi hám kópshiliktiń kewillerinen orın ala aldı. Sonday-aq «Joǵaltılǵan balalıq» atamasında kinoscenariy dóretilip, dògerektiń yutub, instegram, telegram tarmaqlarında járiyalandı. Dògerektiń elede keńirek rawajlanıwına hám



qaraqalpaq ádebiyatındaǵı kórnekli dramaturglerdiń dóretpelerin saxnaǵa alıp shıǵıwǵa háreket etip atırımız.

**Paydalanılǵan ádebiyatlar:**

1. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası A.Paxratdinov Nókis «Bilim» baspası-2003-jıl
2. Qaraqalpaq tilin oqıtıwda ped.texnologiyalardan paydalanıw Sh.Allaniyazova Nókis «Bilim» baspası-2016-jıl



**ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI O‘QITISH METODIKASIDA –  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Sapayeva Zilola Ko‘palboyevna**

Xorazm viloyati Xiva tumani

21-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 91 571 30 07

zilolasapayeva1989@gmail.com

**Salayeva Xosiyat Bardiboyevna**

Xorazm viloyati Xiva tumani

21-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 91 432 77 99

salayevaxosiyat334@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarini o‘qitish metodikasida – innovatsion texnologiyalardan foydalanish ya’ni – umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilar ijodiy fikrlashga, o‘zaro hamkorlikda ish yuritishga, o‘z fikrlarini ravon bayon etishga chorlashi haqida ilmiy fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ona tili va adabiyot, ta‘lim, dars, o‘yin, metod, innovatsion texnologiya, o‘quvchilar.

Shuni ta’kidlash muhimki, “Ona tili va adabiyot” fanlarida noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘z kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda “Ona tili va adabiyot” darslarining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o‘quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o‘zlashtirilishiga zamin yaratish, o‘quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, endi o‘qituvchidan an’anaviy darsdan noan’anaviy darsga o‘tish talab etiladi: Noan’anaviy darsning asosiy yo‘nalishlari;

- O‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;
- O‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- O‘quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;
- Olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.

Noan’anaviy darslarni esa interaktiv metodlar va o‘yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o‘zagini tashkil etadi, Misol uchun, murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina etkazish uchun “charxpalak” “aqliy hujum”, “zakovat”, “t-jadval”, “o‘yin dars”, “bir savolda ikki test”, “sayohat dars”, “musobaqa dars”, “baliq skeleti” kabilarning o‘quv jarayonida qo‘llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo‘llanadigan interaktiv usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Bu kabi interaktiv metodlar va o‘yinlarning dars davomida foydalanilishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savol-javob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o‘rganuvchilarni rag‘batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o‘quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o‘gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o‘zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatlari va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo‘lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi. Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg‘ulotida harakatli o‘yinlarning mavjudligi ham alohida ahamiyatga ega.



Ona tili va adabiyot darslari davomida kompyuter texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta'minlanishini tashkil etishi, so'ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalari yaratishi yoki internet saytlaridan sifatli tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o'quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga va albatta o'quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi. Bu usul grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o'quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalandirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot fanining chuqur o'zlashtirilishi zamonaviy pedagog va pedagoglar innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, interfaol metodlar, o'yinlar va kompyuter texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali yanada puxta, oson va tez bo'lishi mumkin, shu bilan birgalikda o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi o'quvchini qo'zg'atishga qaratilganligi, pedagogning o'z tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ona tili va adabiyot darslarini o'qitish metodikasida – innovatsion texnologiyalardan foydalanish// ona-tili-va-adabiyot-darslarida-zamonaviy-pedagogik-texnologiyalarni-qo'llashning-o-ziga-xos-jihatlari.pdf

2. Ona tili va adabiyot darslarini o'qitish metodikasida – innovatsion texnologiyalardan foydalanish// ona-tilini-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanish.pdf



МАҚОЛЛАР - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA

Rajabova Muqaddam, Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 3-IDUMI ona tili va

adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon:+998995082093

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi turi hisoblanmish maqollar va ularning ibratli tomoni, maqollarning turi, kelib chiqishi, mavzusi, inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, maqol, tarbiya, ibratli saboq, so'z ko'rki.

Xalq og'zaki ijodida tarbiyaviyligi bilan maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va turmush jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ifodalanadi.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy faoliyatida xalq og'zaki ijodini o'rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol, Kimki bilay desang maqolin angla, Hikmatu aql anga erur halol. Asli bilay desang oni angla.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”, – deymiz. Bu so'zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon bo'lgan kishning iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, “O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtningda cho'pon bo'l”, – degan maqolni oling. Bu so'zlar zamirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur Mirzo esga tushadi. Hindistonddek katta mamlakatga podsholik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida “omon” bilan “somon”, ikkinchisida “sulton” bilan “cho'pon” o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadi. Masalan, “Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor”, – desak, bu yerda ham “bo'yi” va “to'ni” so'zlari qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizni “So'z ko'rki – maqol”, deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. bu fikr rad etib bo'lmaydigan hokum shaklida keltiriladi. Masalan, “Ona yurtning – oltin beshiging”, “Olim bo'lsang, olam seniki!” kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz.

“Maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “so'z” degan ma'noni bildiradi. Uni otalar so'zi ham deydilar. Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa, Tepadagin endirar.

Bu maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasa, og'zidagilarini oldiradi. Ular istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka ahil bo'lsa, ular ko'p ish qila oladi. Ya'ni, ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilishi mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p ish bilan ham hech ish qila olmasan. Bu – ma'nosi.

Ifodaga kelsak, “oltovlon”, ko'pchilikni, “to'rtovlon” ozchilikni anglatyapti. “Ola bo'lmoq” noahillik, “tugal bo'lmoq” ahillikni bildirmoqda. “Og'zidagin oldirmoq” bor narsalarni boy deb berib qo'ymoq, “tepadagini endirmoq” qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti.

Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo. Aziz farzand, xalq maqollari – boyligimiz. Ota- 11 Ноябрь 2021 8-қисм Тошкент bobolarimizning siz bilan qoldirgan hazinalaridan biridir. Ularni izlab toping, sevib o'rganing. Kerak o'rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular



butun umringiz davomida hamrohingiz bo`ladi. Har gapingizning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbek xalq maqollari. Toshkent. 2003-yil.
2. S. Ahmedov, R. Qo`chqorov. Adabiyot. 5-sinf darsligi. Toshkent. 2020
3. Internet ma`lumotlari.



## MIRTEMIRNING LIRIK SHE‘RLARIDA FOLKLOR

**Badirova Zaripa Rahmatovna**  
Oltiariq tumani -IDUM  
adabiyot fani o‘qituvchisi  
e-mail:zaripabadirova@inbox.uz

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Mirtemir she‘riyati va uning o‘ziga xosligi, lirikasida folklor unsurlarining aks etish xususida tahlillar, talqinlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** she‘riyat, shoir, lirika, folklor, motiv

O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir XX asr o‘zbek she‘riyatini tom ma‘nodagi lirik she‘rlar va badiiy yuksak dostonlar bilan boyitdi. Uning asarlarida xalq hayotining nafasi ufurib turadi, inson qalbi eng teran puchmoqlarigacha aniq ko‘rinadi, ona yurtning turfa xil ranglari jilolanadi.

O‘zbek munaqqidlari Mirtemirni “o‘zbek she‘riyatining bobodehqoni” deb ataganlarida haq edi. Chunki, Mirtemir butun ijodi umri mobaynida o‘tkinchi zamon hodisalari, siyosiy shiorlarga hozirjavoblikdan ustun turadigan chinakam she‘riyatni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Shoir haqiqiy she‘rning umrboqiylik sirlarini teran xalqchilikda deb bildi. Bunday xalqchilik Mirtemir she‘rlarining g‘oyaviy kompozitsion vujudida qon kabi aylanadi, unga latiflik va serma‘nolik bag‘ishlaydi. Xususan, „Qarqaralik“ she‘rida folklor ruhi juda yorqin seziladi. Uni o‘qiganingizda ruhingizga iliq, mayin va yoqimli bir his kirib kelayotgandek tuyuladi.

Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga,  
Qaydagi savdoni solding boshimga.  
Qaydagi savdoni solding boshimga,  
Qota ko‘rma qatron mening oshimga

E‘tibor bersangiz, bu misralarda hamma shoirlarning she‘rlarida uchrayvermaydigan o‘ziga xos bir ohang bor. Bu ohang bizga tanish, uni qayerdadir tinglaganmiz. Nihoyat eslaymiz:

Ko‘kkina qirg‘iychaning qanotlari bir naychayo,  
Bizni yorlar yuboribdi tilladan tumorchayo,  
Bizni yorlar yuboribdi tilladan tumorchayo,  
Men anga qaydin topay kumushdan yorliqchayo.

Ko‘ramizki, „Qarqaralik“ she‘rining misralaridagi tuyg‘ular oqimi xalq laparlari bilan ohangdosh ekan. Xo‘sh, bu ohangdoshlik aniq holda nimalarda o‘zini namoyon qiladi? Mirtemirning mazkur she‘rida folklor motivida loqal birorta maqol ham yo‘q. Ammo, undagi folklorga yaqinlik, folklorona ohangni nimalar yuzaga chiqaradi?

„Qarqaralik“ she‘riga mana shu savollar bilan yondashsak, adib badiiy mahoratining muayyan qirrasini anglash mumkin bo‘ladi. Bizningcha, Mirtemirning mahorati ayni xolatda xalq she‘riyatiga xos poetik san‘atlar vositasida oydinlashadi. Ma‘lumki, xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti janrlari shaklan rang-barang stilistik shakllar kombinatsiyasiga asoslanadi. Chunonchi, xalq laparlaridan yuqorida keltirilgan parchada alliteratsiya va fonik anaphora san‘atlarining uyg‘unligini ko‘ramiz. Xuddi mana shu uyg‘unlikni „Qarqaralik“ she‘ridan yuqorida keltirilgan parchada ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni, to‘g‘ri misradan chuqur til orqa „Q“ tovushi ham bo‘yiga, ham eniga „xokimlik qilayapti“. Birinchi misrada to‘rt karra takrorlangan „q“ undoshi „k“ bilan birgalikda yaxshi bir oxangni vujudga keltiradi: Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga.. misrada undosh tovushlarning takroriga asoslangan mana shunday oxangdoshlik she‘rshunoslik tilida konsonant alliteratsiya deb yuritiladi. Ikkinchi, uchinchi misralarning o‘rtasida takrorlanib kelgan „savdo solding - savdoni solsang“ birikmalari asosida, shuningdek, to‘rtinchi misradagi „qota ko‘rma qatron“ gapida ham shoir tamonidan ataylab tuzilgan ohangdosh undoshlar takrorini ko‘ramiz.

Endi, she‘rdagi poetik obrazning xalqchil talqini masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak. Tahlil uchun ixtiyoriy masalan ikkinchi bandni tanlaymiz.

Qosh ustiga qo‘ndiribsang qarqara,  
Qora soching qora tunda marmara,  
To‘lqinida koshki o‘zim cho‘milsam  
Shaydoyingman, gar qarama, gar qara.

Qarqara-tillaqoshning attorlik ustaxonalarida oddiy misdan yasalgan, bozorlarda kambag‘allarning qizlari sotib oladigan turi bo‘lib, asardagi lirik qahramon qoshi ustiga qarqara



qo‘ndirilgan qizning shaydosi. Ammo, u qiz sho‘xlik qilib, qahramonga mayl va mehribonlik ko‘rsatmaydi. Shunga qaramay, shaydo ko‘ngil hayol va orzu bilan yashaydi.

Bandning birinchi va to‘rtinchi misralari bizningcha, „cho‘milsam“ so‘zini e‘tiborga olmaganida, xalqning to‘pori she‘riyatiga hamohangdir, ikkinchi va uchinchi misralarda esa, shoirning individual uslubi, hamda klassik she‘riyatimizning obrazlilik an‘analari ustunlik qiladi.

Mirtemirning lirik qahramoni tunda ana shu sharsharaning to‘lqinida cho‘milishni orzu qiladi. Shunga o‘xshash obrazli holat A. Oripov tomonidan ham „tepamda tun kabi quyuladi soch“ qabilida qo‘llanilgan.

Qarqaralik, izlab kelding, yo‘l olis,  
Olis yo‘lda cho‘l olisu, ko‘l olis,  
Bir qaragin, ko‘zginangdan bilayin  
Dardlikansan yaqin, yoki bo‘l olis.  
Qarqaralik, soylaringni kechgum bor.  
Olislardan keldim-u, gap o‘zingda  
Mayli desang qarqarangga qo‘ngum bor.

Yuqoridagi bandning misralarida shoirning lirik qahramoni mashuqasiga bo‘lgan muhabbatini, sevgisini qarqaraga qarata izhor etadi. Har bir misrada ishlatilgan „olis“ so‘zi qofiyalanib, misralarning yanada jarangdor bo‘lishiga ta’sir etgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xalilov T. Mirtemir mahorati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.

2. Sharafiddinov O. Mirtemir. „Birinchi mo‘jiza“ kitobida. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.



## МАКТАБДА МУHAMMAD YUSUF IJODINI O‘RGANISH

**Artiqova Dilnoza Shuhratovna**  
Oltiariq tumani -IDUM  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
e-mail:artiqovadilova@inbox.uz

**Annotatsiya:** ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodi va uning umumta’lim maktablarida o‘qitilishi, shoir she’riyatining o‘ziga xosligi yuzasidan mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** shoir, adabiyot fani, faning maqsadi, shoir she’riyati

Muhammad Yusuf ijodidan namunalar umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Adabiyot” darsligida berilgan bo‘lib, dasturda ularni o‘rganish uchun bir soat belgilangan. O‘qituvchi istasa, o‘ziga berilgan imkoniyatdan foydalanishi, biror mavzudan bir soatni ajratib olib, M.Yusuf ijodini o‘rganishga qo‘shimcha qilishi mumkin. Darslikda shoirning “Mehr qolur”, “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor” va “Biz baxtli bo‘lamiz” she’rlari o‘rin olgan. Har qanday adib asarini o‘rganishdan oldin o‘quvchi uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma’lumotga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shunda uning ijodini to‘laroq anglash imkoniyati ortadi. Shuning uchun ham, “Adabiyot” darsliklarida avval adibning tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlar taqdim etiladi. 8-sinf darsligida M.Yusuf haqida berilgan bir betlik hasbi hol ham uning hayotiy faoliyatini ochib berishga qaratilgan. Lekin bu bilan o‘quvchi uning shaxsi haqida mukammal ma’lumotga ega bo‘lolmaydi. Darsda o‘qituvchi tomonidan shoir shaxsi bilan bog‘liq bir qator qo‘shimcha ma’lumotlarning taqdim etilishi o‘quvchiga uning asarlarini to‘laroq anglash, chuqurroq tahlil qilish imkonini ham beradi. Bundan tashqari milliy tarbiyashunoslikda: “Millatning ulug‘ vakillari o‘z shaxsi bilan o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi” degan fikr mavjud. O‘sib kelayotgan avlod ulug‘lar shaxsi ko‘magida o‘z-o‘zini tarbiyalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni ko‘rishi, ulardan ta’sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak. Shoir Muhammad Yusufning shaxsi, avvalo, uning asarlarida o‘z ifodasini topgan. U bir she’rida yozadi:

Osoyishta o‘tmadi biror bir kunim,  
Talashib, tortishib tolmadim.

O‘quvchilar shoir shaxsiyatini to‘laroq his qilishlari uchun o‘qituvchi avval bu misralarni o‘qib bermog‘i, so‘ng o‘z qarashlarini xulosalarini o‘quvchilarga uqtirish yo‘lidan bormay, shoirning misralargatizilgan o‘zligini savol-topshiriqlarga aylantirmog‘i lozim: Birinchi to‘rtlikdan shoirning shaxsiga xos qanday sifatni ilg‘ash mumkin? “Og‘irroq bo‘l, inim, siporoq bo‘l, inim...”, “Quvroq bo‘l, yolg‘on ham kerak. Jindek xushomad ham” degan gaplar kimga tegishli deb o‘ylaysiz? Nima deb o‘ylaysiz, shoir “...o‘z bilganimdan qolma”ganida to‘g‘ri qilganmi, yo‘qmi? “Ko‘nglim sezar, endi bu yog‘i ayon” bilan shoir nima demoqchi deb o‘ylaysiz? Shu misralar zahirida shoir shaxsiga xos bo‘lgan qanday sifatlarni ilg‘adingiz? O‘zingizni u bilan taqqoslang. Muhammad Yusuf o‘zi aytmoqchi: “Toshkentda eng zo‘r shoir” bo‘loldimi, yo‘qmi? Buni siz nimalardako‘rasiz? Quyidagi ikki misrada shoir o‘g‘il bolalikka o‘z munosabatini bildiradi:

Shamoldek el, suvdek tosh,  
Hech kimsaga bukma bosh...  
“O‘g‘il bo‘lsang...”

O‘g‘il bolaga shunday talab qo‘ya bilishga ruhan o‘g‘il bola bo‘lgan odamgina qodir. Chin shoir ilohiy holatga tushganda, faqat ko‘nglidagi hislarini misralarga aylantirib qog‘ozga to‘kadi. Satrlarda ichki “Men”-ning dardlari ifodalanadi:

Tug‘ildingmi, demak, ayon,  
Shoh qo‘lida zanglagan  
Qilich bo‘lma hech qachon,  
Undanko‘ra bitta mard

Qul qo‘lida xanjar bo‘l!... O‘g‘il bo‘lsang, o‘jar bo‘l, Qolgan bari safsata.

O‘quvchilar bu haqida ham o‘ylab ko‘rsinlar. Bunday gaplarni odam shunchaki aytishi mumkinmi? “O‘g‘il bola”ning sizga qo‘yayotgan talabiga qanday qaraysiz? Talab sizga ma’qulmi, yo‘qmi? Nega? Muhammad Yusufning ilohiy tuyg‘u–muhabbatga ham munosabati o‘zgacha: “Sevdingmi, yuz yil kut, Sevmasang, unut!” deydi “Sevgi sadosi” she’rida. Sevish va bu haqda



ayuhannos solish, bizning yigitlarimizdek transport o‘rindiqlariga, ko‘cha-kuylarda devorlarga sevgilisining ismini yozib qo‘yish o‘g‘il bolaning ishi emas. Shoirning nazarida hatto buni ma‘shuqaga ayitish ham shart emas.

O‘qituvchi bu misralar bilan o‘quvchilarni tanishtirib, so‘ng ularga: “Shu misralarga tayangan holda shoir shaxsiga xos bo‘lgan sifatlarni ochishga urinib ko‘ring” degan topshiriqni berishi mumkin.

O‘quvchilar yuqoridagi misralarga tayanib “yo‘lini kesib o‘tish” tushunchasi haqida mulohaza yuritsinlar. Bu qanday tushuncha? U xalqimizda qanday vaziyatlarda qo‘llanadi? Shunga asoslangan holda shoirning milliy qadriyatlarga munosabati haqida o‘ylab ko‘rsinlar. Ma‘lumki, o‘zbeklarda ayol zoti erkak kishining oldidan kesib o‘tmaslik odati bor. Bu erkakka bo‘lgan hurmat beligisi sanaladi. Lekin bu odatning muhabbatga qanday dahli bo‘lishi mumkin? Muhabbat tuyg‘usini har kim o‘zicha tushunadi. Oshiqning ma‘shuqasiga hurmati shunchalarki, uning oldidan chiqishga qudrati yetmaydi. Chiqa olgan taqdirda ham, hayajon, xijolat qurshovida qoladi. O‘quvchilar hech kim shunday seva olmasligiga ishonisharmikin? Bugungi she‘rxon ham shundoq seva olarmikin? O‘quvchi shular haqida o‘ylab ko‘rsin, munosabat bildirsin.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,  
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.

“Muhabbat” Yuqoridagi to‘rtlikni o‘qib bergach, o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini shoirning so‘z qo‘llashdagi, fikr ifodalashdagi mahoratiga qaratadi. Muhabbat atalmish qadim tuyg‘uning shoir qalbiga kirib kelishi ifodasi tasviri ham o‘quvchilarning nazaridan chetda qolmagani ma‘qul. Bu M.Yusuf she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., «O‘qituvchi» 1996.
- 2.Muhammad Yusuf. Bulbulga bir gapim bor.T.» G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti .1987.

# ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

(8-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000